

Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-aprel holatiga)

2019-yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida 2925 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1632 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5253 ta (19,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 32326 tani tashkil etgan.












Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1630	1612	93
 Sanoat	6917	6869	659
 Qurilish	2626	2598	168
 Savdo	7814	7706	1487
 Tashish va saqlash	1281	1269	95
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	1563	1552	206
 Axborot va aloqa	1016	1001	26
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	731	718	24
 Boshqa turlari	8748	8573	167



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.


2019-yilning 1-aprel holatiga 32326 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,4 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 24,2 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,1 % axborot va aloqa 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5881 ta), Qo'qon shahri (4377 ta), Marg'ilon shahri (3205 ta) va Uchko'prik tumani (1701 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (759 ta), Furqat tumani (768 ta) hamda Yozyovon tumani (697 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, *mingda*.





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **31898** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5271 ta (19,8 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 20,7 % sanoat, 8,2 % qurilish, 20,8 % savdo, 4,2 % tashish va saqlash, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5777 ta), Qo'qon shahri (4323 ta), Marg'ilon shahri (3192 ta), Uchko'prik tumani (1666 ta) va Dang'ara tumani (1500 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (759 ta), Furqat tumani (762 ta) hamda Yozyovon (696 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.04.2017 y.

• 24,6 ming

01.04.2018 y.

• 26,6 ming

01.04.2019 y.


• 31,9 ming



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019-yil 1-aprel holatiga 2925 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2.3 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (434 ta), Qo'qon (326 ta), Marg'ilon (302 ta) shaharlarida, Oltiariq (174 ta), Uchko'prik (156 ta) va O'zbekiston (150 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (39 ta) hamda Yozyovon (54 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (659 ta), savdoda (1487 ta), qurilishda (168 ta), tashish va saqlashda (95 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (206 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida (96 ta), axborot va aloqada (26 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2017 y.		01.04.2018 y.		01.04.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1364	100,0	1293	100,0	2925	100,0
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi	133	9,8	82	6,3	93	3,2
Sanoat	457	33,5	344	26,6	659	22,5
Qurilish	90	6,6	113	8,7	168	5,7
Savdo	359	26,3	234	18,1	1487	50,8
Tashish va saqlash	65	4,8	51	3,9	95	3,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	86	6,3	57	4,4	206	7,0
Axborot va aloqa	41	3,0	31	2,4	26	0,9
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	20	1,5	39	3,0	24	0,8
Boshqa turlari	113	8,3	342	26,5	167	5,7

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni






TIJORAT KORXONALARINI.

2019-yil 1-aprel holatiga 26452 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9483 ta, oilaviy korxonalar – 3221 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari – 13059 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 53 tani va boshqalar 636 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-aprel holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 319 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 105 taga yoki 49,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 220 tasi qo'shma korxonalar, 87 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalardan 228 tasi qo'shma korxonalar, 91 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 110 ta (34,5 %), Qo'qon 46 ta (14,4 %), Marg'ilon 21 ta (6,6%), Quvasoy 18 ta (5,6 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 16 ta (5,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,6 %), Furqat tumani 3 ta (0,9 %), Qo'shtepa tumani 5 ta (1,6 %), Bag'dod tumani 7 ta (2,2 %), Buvayda tumani 5 ta (1,6 %) va Yozyovon tumani 3 ta (0,9 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 198 ta (62,1 %), savdoda 46 ta (14,4 %), boshqa turlarida esa 15 ta (4,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 4 ta (1,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 18 ta (5,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 7 ta (2,2 %), qurilishda 8 ta (2,5 %), tashish va saqlashda 9 ta (2,8 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 14 ta (4,4%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi

korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 36 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga ko'paygan yoki 2.6 martaga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, J.Koreya Respublikasi - 4 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Germoniya-1, Qozog'iston- 1 ta, Latviya – 1, Buyuk Britaniya – 1, Ozarbayjon -1

tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yurgazishga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 15 ta, savdoda 6 ta, qurilishda 1 ta va boshqa korxonalarda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**


	2018-yil yanvar-mart		2019-yil yanvar-mart	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami	14	100	36	100
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi			8	22,2
Sanoat	10	71.6	15	41,7
Qurilish	1	7.1	1	2,8
Savdo	3	21.3	6	16,7
Tashish va saqlash			3	8,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			2	5,6
Axborot va aloqa				
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				
Boshqa turlari			1	2,8



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-aprel holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 26,3 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-aprel holatiga qaraganda 22,9 % ga oshgan. Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4836 tasi (18,4%) Farg'ona, 3732 tasi (14,4 %) Qo'qon, 2857 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga,


1443 tasi (5,5 %) Uchko'prik va 1273 tasi (4,8 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 26305 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7786 tasi (29,6%) - savdoda, 6873 tasi (26,1%) - sanoatda, 2610 tasi (9,9 %) - qurilishda, 1575 tasi (6,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1556 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1268 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 1014 tasi (3,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 542 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3081 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yil yanvar-mart oyida 2851 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,6 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (413 ta), Qo'qon (322 ta), Marg'ilon (299 ta) shaharlarida, Oltiariq (168 ta) va Buvayda (152 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (38 ta), Beshariq (89 ta) hamda Qo'shtepa (90 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1486 ta), sanoatda (659 ta), boshqa turdagi xizmatlar (108 ta), qurilishda (166 ta), tashish va saqlashda (95 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (81 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (206 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va

aloqada (26 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-aprel holatiga 3221 tani tashkil etib, ulardan 3190 tasi yoki 99,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 21,1 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 46,5 % yoki 1497 tasi sanoat, 13,6 % yoki 438 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,1 % yoki 584 tasi savdo, 8,4 % yoki 271 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,2 % yoki 70 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 30 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 36 tasi qurilish, 0,8 % yoki 26 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 8,4 % yoki 269 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari 1 aprel 2019 yil kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.